

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**З.М.БОБУР НОМИДАГИ АНДИЖОН ДАВЛАТ
УНИВЕРСИТЕТИ**

ХОРИЖИЙ ТИЛЛАР ФАКУЛТЕТИ

ИНГЛИЗ ТИЛИ ВА АДАБИЙТИ КАФЕДРАСИ

307 - ГУРУХ ТАЛАБАСИ АБДУБАННАЕВА МУНИРА

**"ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎҚИТИШДА ДАРСДАН ТАШҚАРИ
МАШҒУЛОТЛАРНИНГ ЎРНИ"**

РЕФЕРАТ

ИЛМИЙ РАХБАР:

катта ўқитувчи М.Якубова

АНДИЖОН 2014

INGLIZ TILI O'QITILISHIDA SINFDAN TASHQARI MAHG'ULOTLARINING O'RNI

Kirish

- 1. Chet tillarida sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar.**
- 2. Chet tillarida sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning maqsadi va mazmuni.**
- 3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning shakllari va ularning o'tkazish texnologiyasi.**

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

Bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo'lgan yoshlarga sifatli, jadal va innovatsion tarqqiyotning eng muhim sharti va garovi bo'la olishi, aynan ular mamlakatning buyuk kelajagini ta'minlashi mumkinligiga kimnidir ishontirish yoki isbotlab berishning xojati yo'q"¹ deya ta'kidlab o'tganidi

I.Karimov "O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqida.

Ushbu fikrlarning dalili mamalakatimizning navqiron avlodiga yaratib berilayotgan bekamu-ko'st shart-sharoitlar, hamda bunga munosib tarzda yoshlarimiz erishayotgan quvonarli natijalar timsolida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Binobarin farzandining baxtu, kamolini ko'rish orzusida yashash halqimizga xos hislat, qolaversa buning zamirida ota-onalik ma'suliyati mujassam.

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning noyob tizimi, amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat umummilliy darsturlari ijrosi natijasida turli o'quv muassasalari yangitdan bino qilindi. Ko'pchiligi rekonstruksiya qilindi.

Yosh avlodni zamon talabiga mos ravishda voyaga etkazish uchun barcha shart-sharoitlar muxayyo qilindi. Mamalakatimizda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar hamda oily ta'lim tizimida ham yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash ishlari izchil davom ettirilmoqda.

Ta'lim sohasidagi ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz Fransiyadagi dunyoni eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan "Inssad" xalqaro biznes maktabining 2012 yilgi "Innovatsiyalarning global indeksi" ma'ruzasida bayon etilgan ma'lumotlarni keltirish o'rinlidir. Ma'ruza jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlangan. Ushbu ma'ruzada dunyoning 141

¹ I.Karimov "O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati" mavzusidagi xalqaro konferensiyada so'zlagan nutqi. Andijonnoma gazetasi

mamalakatidagi innovasion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Tahlilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri inson kapitalining rivojlantirish darajasi bo'lib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha bizning mamlakatimiz 35-o'rinni egallagan. Ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi bo'yicha esa O'zbekiston dunyoning 141 davlati orasida ikkinchi o'rinni band etgan.

Bunga sabab xukumatimizning ta'lim sohasiga, yoshlar tartbiyasiga e'tibori kattaligidandir. Ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh qilishga har yili yalpi buyudjet xarajatlarining 35 foisi yo'naltirilganligi ham fikrimizning isbotidir.

2012 yil dekabrda O'zbekiston Respublikasi Presidentining "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham ta'lim sohasidagi islohotlarning davomi deb hisoblaymiz. Bu qarorga o'qitishning ilg'or uslublarni joriy etish yo'li bilan yosh avlodni chet tillarga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimining negizida ular jahon sivilizasiyasi yutuqlari, hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari halqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-shariot va imkoniyatlar maqsad qilib qo'yilgan. Bu maqsadni amalga oshirish, chet tillarni o'rganishni tashkil qilishning zamon talablariga moslashtirish, dars jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilishni, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishning yangidan-yangi shakllarini izlab topish talab qilinadi.²

Ushbu publikatsiyalarda chet tili o'qitilishida sinfdan tashqari ishlarning yetuk yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazishda ahamiyati kattaligi ta'kidlangan. Jumladan J.Jamolov, A.AMirolyubov, I.V.Rahmonov, V.S.Setlin va boshqalarning ham bu masala yuzasidagi fikrlari so'zlarimizning isbotidir. Ammo bu masala yuzasidan izlanishlar nihoyasiga etkazilgan deb bo'lmaydi. Zamon talabi axborot vositalarining sifat va son jihatdan o'zgarib, takomillashib, rivojlanib borishi ingliz tili o'qitilishida yangidan yangi uslublarni izlab topilishi va kashf qilinishiga sabab bo'lmoqda. Shu bois ham bu mavzuning yoritilishi nihoyasiga etkazilmagan.

² "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori Andijonnoma gazetasi

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik sifatini ko'tarish, o'quvchilarning ingliz tilidagi til tayyorgarligi, ta'lim samaradorligi oshirishni nazariy jihatdan asoslab berish, o'quvchilarni og'zaki nutq, o'qish, yozish, tinglab tushunish malakalarini shakllantirish umumta'lim maktablariga ingliz tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish zamonaviy shakllarini ishlab chiqish va sinfdan tashqari ishlar uchun o'quv materiallari tanlash malakaviy ishning maqsadi hisoblanadi.

Chet tillaridan sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar.

Xorijiy tillardan sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar boshqa o'quv predmetlari singari umumiy ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismidir. Ta'lim islohoti olib borilayotgan sharoitda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning ahamiyati ancha o'shdi. Ilg'or chet tili o'qituvchilarining tajribasi shundan dalolat beradiki, to'g'ri tashkil qilingan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'quvchilarning tildan olgan bilimlarining sifatini yaxshilashga yordam beradi. Ularning amaliy malaka va ko'nikmalarini chuqurlashtiradi, ularning ijodiy aktivliklarini, tashabbuskorligini oshiradi va nixoyat ma'naviy qadriyatlarimiz mehnatga nisbatan chuqur hurmat ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Hozirgi vaqtda o'quvchilar bilan chet tilida turli xil sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar o'tkazishning qanchalik muhim va zarurligini hech kim e'tirof eta olmaydi. Keyingi yillarda metodik adabiyotlarda o'quvchilarning sinfdan tashqari olib borgan ishlari sohasidagi va o'quvchilarning chet tillardan ilg'or tajribalari haqida qator maqolalar va to'plamlar nashr qilingan.

Maktabda bu ishning tobora yangi tashkiliy shakllari: to'garaklar, fakultativ kurslar, o'quv markazlari, kutubxonalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirvalar, quvnoqlar va zukkolar konkursdari va shu kabilar paydo bo'la boshladi. Biroq ilg'or o'qituvchilarning o'z o'quvchilari bilan chit tilidan sinfdan tashqari ishda erishayotgan ma'lum muvafaqqiyatlariga qaramasdan bu sohada ham qator hal etilmagan va munozarali muammolar bor. Mavjud bo'lgan metodik qo'llanmalar va darsliklarning mualliflari, masalan sinfdan tashqari ishlarni turlicha talqin qiladilar. Ko'p o'qituvchilar sinfdan tashqari ishning mazmunini turlicha talqin qilganlar. Ko'p o'qituvchilar sinfdan tashqari ishning mazmuni o'quv materialini bilan yaqindan bog'langan bo'lishi kerakligini anglab turib, amalda bu bog'lanishni hamma vaqt ham muvafaqqiyatli amalga oshiravermaydi. Bunda yo sinfdan tashqari ishni tashkil qilishning prinsiplaridan biri bo'lmish uning qiziqarliligiga putur etadi, yoki o'quvchilarni ko'p band qilishga yo'l qo'ymaslik haqidagi talabi etarli darajada

hisobga olinmaydi. Nazariy jihatdan, ham amaliy jihatdan ham bizning fikrimizcha predmatlarning bir-biri bilan bog'lanish xarakterining chet tillaridan tashqari ishlarning mazmuniga va tashkil qilinishiga ta'siri etarli darajada hisobga olinmaydi.³

O'quvchilarning individual xususiyatlarini o'stirish, shubhasiz sinfdan tashqari ishlarning eng muhim vazifalaridan biridir. Biroq chet tilini o'tganishga alohida qiziqib qaraydigan o'quvchilar bilan ishlash metodik adabiyotlarda bo'sh yoritilgan va o'quvchilar bunday o'quvchilar bilan ishlashning tashkiliy shakllarini tanlashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu boisdan ushbu muammolarni o'qituvchilarning tajribasiga va metodikasidagi yangiliklardan boxabar bo'lgan holda hal qilish mumkin.

³ A.A.Miralyubov, I.B.Rahmonov "O'rta maktabda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi" T.1974

Chet tillardan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning maqsadi va mazmuni

O'quvchilar bilan sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni o'tkazayotganda o'qituchi o'quv mashg'ulotlari oldida qanday vaziyatlar turgan bo'lsa o'shanday umumiy ta'lim va tarbiya vaziyatlarini hal qiladi.

Ammo sinfdan va maktabdan tashqari ishning xususiyati o'quvchi oldida turgan konkret vazifalarni aniqlash imkonini beradi. Eng avvalo bu ishda o'quvchilarning ixtiyoriy ravishda ishtirok etishi uchun qiziqishi va qat'iy dasturiy talablarni yo'qligi, o'qituvchiga mashg'ulotlarda darsdagidan ko'ra, o'quvchilarning nutq faoliyatini oshirivchi boshqa til muhitiga o'xshash kengroq sharoit yaratish imkonini beradi. Chet ellik turistlar, valantyorlar bilan suhbatlar chet ellarga brogan, yoki chet tilini yaxshi biladigan kishilar bilan muloqot qilish, yoki uchrashuv kechalarida qat'iy qatnashishi, dublaj qilinmagan kinofilmlar, multfilmlar ko'rish va shu kabi boshqa shakllari o'quvchilar uchun tildan muomila qilish vositasi sifatida amaliy foydalanish darslarda hosil qilingan malaka va ko'nikmalar qanchalik qimmatli ekanligini anglab tushinish imkonini yaratadi. Bularning hammasi o'quv mashg'ulotlarida hosil qilingan tildan foydalanish ko'nikma va malakalarini takomillashtirish uchun alohida qulay sharoitlar yaratadi. Shuning uchun sinfdan chet tili bilan shug'ullanish jarayonida o'quvchilarda tarkib topgan og'zaki nutq va o'qish malakalari, hamda ko'nikmalarini yanada takomillashtirish va avtomatlashtirishni maktabdan va sinfdan tashqari ishlarning asosiy tomoni deb hisoblash kerak.

Materiallarni va ish shaklini tanlashdagi ma'lum erkinlik o'quvchilarning umumiy ma'lumot darajasini kengaytirish, ularni tarbiyalash uchun qulay sharoitlar yaratadi. Haqiqatdan ham tili o'rganilayotgan mamlakatning kundalik hayotini yoritib boruvchi gazeta va jurnallardagi materiallardan keng foydalanish bu mamlakatlarning hozirgi hayoti bilan chuqur va asosli ravishda tanishtirish o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash imkoniyatini beradi.

O'quvchilarning estetik jihatdan tarbiyalashda chet tillaridan sinfdan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar, sinfda olib boriladigan ishlardan ko'ra ancha ko'proq yordam beradi. Chet tilidan maktabdan tashqari kechalar uchun piessalar, ashulalar, she'rlar matnlarni to'g'ri tanlaganda o'quvchilarning hayotidagi go'zalliklar va san'atga bo'lgan muhabbatni tarbiyalash, sinf mashg'ulotlaridagiga qaraganda bir muncha osonroqdir. Kechalarni o'tkazish (stendlarni, vitrinalarni, albomlarni badiiy bezatish, kechalarni muzikani xushohang qilish) usuli ham xuddi shunga yordam qiladi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ish o'zining xususiyatiga ko'ra o'quvchilarning individual qiziqishlari va imkoniyatlarini ancha ko'p hisobga olish imkonini beradi. O'qituvchi o'quvchilardagi og'zaki nutq, o'qish va yozuv malaka va ko'nikmalarining qanchalik o'shganligi darajasini hisobga olib, ularga turli xil vazifalarni berish mumkin. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqish va moyilligini oshirish uchun imkoniyat tug'diradi. Shuning uchun sinfdan tashqari ishlarni olib borishdan asosiy maqsad chet tillarni o'rganishga alohida qiziqishi va moyiligi bo'lgan o'quvchilarda tilni egallash darajasini oshirishdan iboratdir.

Maktabdan va sinfdan tashqari ingliz tilida nima qilinishini bu ishlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda qisqacha ta'riflab, ularning mazmunini ko'rib chiqishga o'tamiz.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni olib borishdan maqsad o'zaro muomila qilish vositasi bo'lgan tilni amaliy egallash malaka va ko'nikmalarini takomillashtirish, ya'ni og'zaki nutq va o'qish sohasidagi ko'nikmalarni yanada o'stirishdan iboratdir. Sinfdan tashqari ishning asosiy mazmunini nima tashkil qilishi kerak, eshitish va gapirish yoki o'qish va matnni tushunishmi degan savol tabiiy ravishda paydo bo'ladi. Maktablarning ish amaliyotida bu masala turlicha xil qilinadi.

Bizning fikrimizcha asosiy e'tiborni gapirish va nutqni tinglab tushunish ko'nikmalarini o'stirishga qaratish lozim, o'qish va matnni tushunishni

o'rtiradigan ish shakllari faqat asosan sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarni to'rtirishi kerak. Bu fikrni quyidagi mulohazalarga asoslanib ilgari suramiz.

Birinchidan maktab sharoitida nutqni o'rtirish o'rtuvchi uchun alohida qiyin vazifa hisoblanadi, chunki mashq qilish uchun ko'p vaqt talab qilinadi. Maktabda tilni o'rganish uchun nisbatan kam vaqt ajratilganligi sababli og'zaki nutqda mashq qilish uchun har qanday imkoniyatdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, og'zaki nutqni takomillashtirish ma'lum shartlarni bajarishni xususan o'rganilayotgan tilni biladigan kishilarning (hech bo'lmaganda bir kishining) bo'lishini taqozo qiladi. Shuning uchun og'zaki nutqdan beriladigan vazifalar odatda o'rtuvchilar tomonidan maktabdan, yoki boshqa o'rtuv markazlaridan tashqarida bajarilishi mumkin emas. O'rtish va matnni tushunish malaka va ko'nikmalarni esa uyda ishlarini mustaqil bajarish orqali takomillashtirishi mumkin, bu ish o'rtuvchi tomonidan muntazam ravishda nazorat qilib turilishi kerak, albatta.

Ilg'or o'rtuvchilarning tajribasi shundan dalolat beradiki, malaka va ko'nikmalarning ko'rsatilgan turlari nisbatan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida o'rtish bosqichiga qarab o'zgaradi. Tillarni o'rtirilishining boshlang'ich va o'rtta bosqichlarida ishning barcha shakllari og'zaki nutqga qaratiladi, o'rtish va matnlarni tushunish malaka va ko'nikmalarini o'rtirish bilan bog'liq bo'lgan ish formalari esa uncha katta bo'lmagan o'rtinni egallaydi. Yuqori bosqichda adabiyot (badiiy, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy ommabop) bilan olib boriladigan ishning turli xil shakllari sinfdan va maktabdan tashqari barcha tadbirlarning taxminan uchdan bir qismini tashkil qilib katta rol o'rtinay boshladi.⁴

Endi chet tilidan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarning mazmun jihatdan o'rtiga xos qanday bo'rtishi kerakligini bayon qilmoqchimiz.

Bu sohada talab shundan iboratki, sinfdan tashqari ish o'rtuvchilarning darsda olgan bilimlari ko'nikma va malakalarini faqat chuqurlashtirishi,

⁴ J.Jalolov "Cet til o'rtish metodikasi" T.1996

kengaytirishi va takomillashtirishi mumkin, biroq sinfdan tashqari ishdan kutilgan asosiy maqsad yangi bilim berish, tilni egallash malaka va ko'nikmalarini berishdan iborat emas. Shu munosabat bilan ko'nikma malakalarni o'stirish uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi me'yorda jalb etish mumkin degan savol tug'diradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, malaka va ko'nikmalar asosan o'quvchilarga yaxshi tanish bo'lgan material zaminida takomillashtirilishi kerak. Lekin mashg'ulotning tematik doirasini, til materialini hammadan avval leksikani o'zina bo'lsa-da ko'paytirmasdan kengaytirish mumkin bo'lmagani uchun (bundan ko'paytirishdan bosh tortish esa o'quvchilarning qiziqishiga ta'sir qiladi) til materialini juda ham cheklangan darajada bo'lsada, qisman qo'shish mumkindir. Sinfdan tashqari ishlarning o'quvchilarni rag'batlantirishga xizmat qilishi kerakligini e'tiborga olib, o'qituvchi bunday o'quvchilarga boshqa o'quvchilarga qaraganda ko'proq qo'shimcha til materiali berishi mumkin.

Sinfdan tashqari ish sohasidagi keyingi talab sinfdan tashqari tadbirda foydalaniladigan materialning shuningdek ish shakllarining maroqli, hamda qiziqarli bo'lishidir.

O'qituvchi tomonidan sinfdan tashqari ishlar uchun tanlab olingan har qanday mavzu o'quvchilar uchun bilim beruvchi material bo'lishi kerak. Mavzu ustida ishlayotganda o'quvchilar ilgargi darslarda mavzu yuzasidan olgan ma'lumotlarga qaraganda qandaydir yangi narsalarni bilib olishlari kerak, masalan yozuvchilarning hayotidan ular uchun yangi, ularga noma'lum bo'lgan epizodlarni, darslarda o'tilgan asarlardan parchalarni bilishlari, internet orqali tanishgan do'stlari xatlaridan foydalanib tili o'rganilayotgan mamlakatning shaharlari haqida o'z bilimlarini boyitishlari kerak.

Bunda o'qituvchi o'quvchilarning o'ziga tanish bo'lgan leksik va grammatik materialini yangi, tabiiylikka maksimal darajada yaqin bo'lgan sharoit, hamda vaziyatlardan foydalanishini kuzatib borishi lozim.

Sinfdan tashqari o'tkazilayotgan tadbirlar vaqtida hech narsa o'quvchilarga darsni eslatmasligi lozim. Bu yerda o'qituvchi yo'q, faqat hamma ishda yordam berishga, ishni to'g'ri yo'naltirishga tayyor turgan katta "do'st" trener bor xolos.

O'quvchilar o'qib chiqish, esda saqlash va so'ngra o'qituvchiga so'zlab berish uchun material olmaydilar. Bu yerda o'quvchilar va o'qituvchilarning hayotiy manfaatlari bilan bog'liq bo'lgan aniq vazifalarni birlashtirib bajaradilar. Tanishlai, do'stlari uchun shahri, maktabi, qiziqishi va hokazolar haqida ma'lumot tayyorlaydilar. Bu yerda yaxshi yomon baho yo'q. Lekin o'quvchi tomonidan bajarilgan barcha ishlarni aks ettiruvchi chiroyli, yaxshi va bir oz durustroq kundaliklar, albomlar, vitrinalar bor. Odatdagi sinf va partalar ham kerak emas. O'qituvchi o'quvchi bilan mashg'ulot mavzusiga masalaning hal qilinishiga hammadan ko'proq mos keladigan sharoitda uchrashadi. Bunday joy zal, maktab bog'i, park, kinozal, muzey va hokazo bo'lishi mumkin.

O'yinlardan keng foydalanish sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning maroqli bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. O'yinlar bolalarda muhim vosita bo'lib, chet tiliga o'rgatishning har bir bosqichida undan foydalanish mumkin. Lekin o'yinning xarakteri va mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi kerak.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning mazmuni sohasidagi yana bir talab bu ishlarning boshqa o'quv predmetlarining materiali bilan bog'liq bo'lishdan iboratdir. Bu bog'lanish so'zlashuv to'garaklari mashg'ulotlarining tematikasini belgilashda, tarix, geografiya adabiyot bo'yicha tegishli o'quv materialini o'rganish munosabati bilan chet tilida ekskursiyalar tashkil qilishda namoyon bo'ladi. Masalan, o'lkashunoslik adabiyot muzeylariga ekskursiyalar uyshtirish, teatr, kinoga borish va boshqalar.

Bu ishni tashkil qilishga doir yana bir talab, chunonchi unda maktab o'quvchilari ishtirokining ixtiyoriyligi va aktivligi haqida to'xtalab o'tish zarur. O'quvchilar o'zlarining ihtiyojlari va qiziqishlariga qarab sinfdan tashqari ishning biror formasini tanlab oladilar. Ammo o'quvchi to'garak, kecha, konkurs va shu kabilarda ishtirok qilishni izhor etishi bilan birga ixtiyoriy ravishda o'z zimmasiga ma'lum majburuyatlarni oladi, bu majburiyatlarning bajarilishini o'qituvchi qat'iy ravishda kuzatib boradi.

Agar sinfdan va maktabdan tashqari ishlar haqiqatan ham qiziqarli darajada yo'lga qo'yilsa va o'quvchilarda to'la qoniqish hosil qilsa, u vaqtda bu sinfdan va maktabdan tashqari ishlardan osonlik bilan o'quvchilar bilimining sifatini oshiruvchi vosita sifatida foydalanish mumkin. O'qituvchi bu ishga unga ishtirok etishni istovchilardan chet tilidan olgan bilimi belgilangan talablarga mos keladigan va o'ziga topshirilgan vazifalarni faol bajaradigan o'quvchilarnigina qo'yadi. Bu talablar o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilan birgalikda ishlab chiqiladi va o'quvchilarning til jihatidan tayyorgarligiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilish sohasiga qo'yiladigan jiddiy talablardan biri, bu ishlarning ommaviy bo'lishidadir. O'qituvchilar bilan ishlashning ommaviy shakllari afzallikka ega bo'lishi kerak, chunki xuddi ana shu ommaviylik insoniylikning eng asosiy jihatlaridan bo'lmish hamkorlik, o'rtoqlarga o'zaro yordam, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash tuyg'ularini shakllantirishga yordam beradi.

Chet tilidan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shunday tashkil qilinishi kerakki, ular o'quvchilarning ijodiy tashabbusuni, mustaqilligini o'stirish.⁵

Sinfdan tashqari har qanday tadbirni, u konkurs, yoki tematik kecha bo'lmasin, hammasining tashabbuskori yoshlar tashkilotlari jumladan, "Kamolot" ning faollari bo'lishi va ular maktabning sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar rejasiga kiritilishi kerak. O'qituvchi bunda katta ehtiyotkorlik bilan, odob bilan o'quvchilar tashabbusini bo'g'masdan, ularning ishalarini yo'naltirib turishi kerak.

Barcha aytilganlardan yakun yasab quyidagilarni ta'kidlash mumkin. Chet tillarda olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shu o'quv predmetini o'rgatish sohasiga qo'yiladigan amaliy umumta'lim va tarbiyaviy vazifalar asosida tashkil etiladi. Sinfdan tashqari ishning o'ziga xos xususiyati tildan amaliy foydalanish ko'nikma va malakalarini asosan o'quvchilar tomonidan sinf mashg'ulotlari jarayinida o'rganiladigan til materiali bazasida o'stirishdan

⁵ Z. Vahobjonova "Chet tillarini o'qitishda lingvo - didaktik o'yinlar" A. 200

iboratdir. Shu bilan birga sinfdan tashqari ishlar chet tillarni o'rganishga alohida moyilligi bo'lgan o'quvchilarning o'stirishga yordam berishi kerak.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar jarayonida asosiy e'tiborni og'zaki nutq malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishga qaratish kerak; o'qish ko'nikmasini takomillashtirish faqat yuqori bosqichidagina katta o'rnini egallab, tilni amaliy jihatdan (chunki o'quv faoliyatining bu ikki turi ham bir butunning tarkibiy qismlaridir) o'tkazilishi, formasi va turiga ko'ra bir-birlaridan ancha farq qiladilar.

Sinfdan tashqari ishlar qatnashuvchilarning soniga qarab, odatda uch asosiy shaklda; ommaviy, to'garak va individual shakllarda o'tkaziladi. Ularning har biri o'kazishilishining mazmuni va xarakteriga ko'ra ko'p turlarga bo'linib ketadi. Shulardan asosiy hisoblanganlaridan ba'zi birlari yani, o'quvchilarning nutq ko'nikmasi va malakalarini rivojlantirishda keng samarali bo'lganlari ustida to'xtalib o'tamiz.

Keyingi yillarda O'zbekiston umumta'lim maktablarida chet tili o'qitilishida sinfdan tashqari ishlar sifatida to'garak faoliyat ko'rsatmoqda. To'garaklar o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojlariga ko'ra juda ham turli-tuman bo'lishi mumkin; so'zlashuv krujogi (og'zaki nutq ko'nikmalarini o'stirish bo'yicha), tarjimonlar to'garagi, badiiy o'qish, drammatik qo'shiq va ommaviy ishlar. Krujoki va boshqalar ko'pchilik to'garaklarning xarakteri ularning nomidan ma'lum.

So'zlashuv to'garagining ishi unda qatnashuvchi o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikma va malakalarini o'stirishga qaratilgan. Tarjimonlar to'garagi a'zolarini chet ellik mehmonlar bilan uchrashganda og'zaki, tarjimonlar rolini bajarish uchun tayyorlaydi. hozirgi davrda mamlakatimizda qo'shma korxonalarning ko'payganligi chet el mutaxassisslarning turli sohalar bo'yicha ishga taklif qilinganligi valontyorlar, turistlar va xorijlik talabalar sonining ko'payishi sababli ularni maktablarga taklif qilish imkoniyatlari ko'p bunday uchrashuvlarda taklif qilingan mehmonlar faqat lozim bo'lgan tilda gapirishlari, "tarjimonlar" esa ularga boshqa o'quvchilar bilan so'zlashuvga yordam bermoqlari

kerak. Suhbatlar tarjimonlar to'garagida oldindan tayyorlanib qo'yilgan mavzular bo'yicha olib boriladi. Bu krujok mamlakatshunoslik to'garagi bilan yaqun aloqada bo'lib, ish olib boradi, u bilan tili o'rganilayotgan mamlakat bo'ylab safar qiladi, shu to'grak a'zolarining nutqlarini chet tiliga va aksincha chet tilidan ona tiliga tarjima qilib, kuzatib boradi. Krujok a'zolari chet tili fan haftaligida vaqtli vitrinalar, vistavkalar tashkil qilib yoki devoriy gazetalar chiqarib, qiziqarli ma'lumotlarni barcha o'quvchilar diqqatiga havola qiladilar.

Sinfdandan va maktabdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlar konkurs, olimpiada va turli xil kechalar o'tkazish rejalarini tuzish va bezatish ishlarini ham to'garak a'zolari bajarilishi mumkin. Ayrim holatlarda o'qituvchi bilan maslahatlashadi. Tadbir uchun o'quv materiallari, shiorlar, plakatlar, programmalar tayyorlashda ko'maklashadi. Turli o'yinlar tashkil qilib, boshqaruvchi rolini bajaradilar.

Keyingi yillarda chet tili bilan ta'minlangan kutubxonalar tashkil qilish ommaviy tus omoqda. Kutubxonalar qoshida turli to'garaklar, til markazlarini hosil qilish mumkin. Ularga kutubxonachidan tashqari kutubxona faollari ham rahbar bo'lishi mumkin, izchil ravishda ommaviy tadbirlar, kechalar, konkurslar, kitobxonlar konferensiyalari, uchrashuvlar o'tkazib turiladi. Kutubxonada tavsiya qilinagan chet tili adabiyoti ro'yhati, chet tilidagi kitobni qanday ishlash lozimligi, haqida eslatma ilib qo'yiladi. Kutubxona a'zolari uchun jadval bo'yicha konsultatsiyalar belgilanadi. Konsultatntlar o'quvchilarga chet tili matnini biror qiyin joyini tushunishga yordam beribgina qolmay, balki o'quvchilarning mustaqil o'qishining qanchalik samarali ekanligini tekshiradilar va hisobga oladilar. Kelchalar ertalabki yig'ilishlar (utrinniklar) ham sinfdan tashqari ishlarning ko'rinishlaridan xisoblanadi. Kechalar va utrinniklar yoki rituallar o'z mazmuniga ko'ra uch xil bo'lishi mumkin.

1. O'quvchilar uchun qiziqarli bo'lgan biror shaxs bilan uchrashuvga bag'ishlangan kechalar, ertalabki rituallar.
2. Qizil kalendar kunlariga biror yozuvchining hayoti va ijodi, tinchlik uchun, jahon halqlari o'rtasida do'stlikni mustahkamlash uchun kurash

mavzulariga va shu kabilarga bag'ishlangan tematik kechalar, ertalabki tomoshalar.

3. Guruhlar, sinflar, to'garaklar va ayrim o'quvchilarning o'z ishi haqidai ijodiy hisoboti.

Ushbu tadbirlar programmada ko'rsatilgan og'zaki nutqni o'stirish tematikasi bilan belgilanadi. Biroq temalar ifodalanishining o'zi, ularning berilishi va ishlanish, materialni tanlashda va uni ishlab, tayyorlashda o'quvchilarda namoyon bo'ladigan ijodiy tashabbusni o'stirishga yordam berishi kerak.

Tematikani belgilashda shuni nazarda turish kerakki ba'zi temalarning o'qitishning ayrim bosqichlari yoki sinflari uchungina tavsiya qilish mumkin. Bir qator temalar o'qitishning turli bosqichlarida boshqa variantlarda o'tkazilishi mumkin.

To'garaklarda o'tkaziladigan tadbirlar tematikasini belgilashda ko'pchilik metodistlarning fikrlari ham bor. Masalan, A.AMirlyubov, I.V.Rahmonov, V.S.Setlin o'zlarining hammuallifligidagi "O'rta maktabda chet tililar o'qitishning umumiy metodikasi" darsligida (494 bet) quyidagi mavzularni tavsiya qiladilar.

Bu mavzular o'qish bosqichlariga qarab belgilanadi.

V-VI sinflar uchun.

1. Biz chet ellik do'stlarimizga chet tilida nimalar haqida so'zlab berishimiz mumkin.
2. "Chet eldagi tengdoshlaringiz hayoti to'g'risida" nimalarni bilasiz, yoki bildik?
3. Chet tilida ertaklar aytish kechasi.
4. Chet tilida maqollar va topishmoqlar aytish kechasi.

VII-VIII sinflar uchun.

1. Yoshlar tinchlik uchun kurashda.
2. Tili o'rganilayotgan mamlakat xaritasi.
3. Muhim kunga bag'ishlangan kecha.
4. Mening sevilmi yozuvchim.
5. Chet tilidagi gazetalardan biz nimalarni bildik.

6. Chet elliklar bilan uchrashuv kechasi.

7. Buyuk kishilar hayotidan.

IX sinflar uchun

1. Yoshlar tinchlik uchun kurashda.

2. Tili o'rganilayotgan mamlakatlar davlat arboblari haqida nima bilasiz?

3. Texnika axborot kechalari chet el jurnallari va gazetalarining sahifalarida.

4. Tili o'rganilayotgan mamlakatning mashhur shoirlari va kompozitorlari.

5. Adabiy muzikali montaj.

6. Chet ellik do'stlar bilan uchrashuv kechasi.⁶

Tematikaning taxminiy bo'linishi, birinchidan til hajmi bilan (uning ortishi bilan tematik murakkablashtirish bilan), ikkinchi tomondan o'quvchilarning umumiy ma'lumot tayyorgarlik darajasi, ba'zi predmetlarning o'zaro bog'lanishining amalga oshirilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Kechalarni tayyorlash va o'tkazish yuzasidan olib boriladigan ishlar sinfdan tashqari ishlarning boshqa turlaridan farq qiladi. Bu quyidagi hollar bilan bog'liqdir.

O'quvchilarning chiqishlari shakl va xarakteriga ko'ra maktab kechalari san'atning har xil turlariga yaqinlashadi. Ular bu bilan o'quvchilarni estetik ruxda tarbiyalashda va ularning qobiliyatlarini o'stirishda katta rol o'ynaydi. Ammo o'quvchilarning unchalik boy bo'lmagan til va nutq tajribasi ularning chiqishlarida birmuncha cheklanishlariga sabab bo'ladi. Shuning uchun o'quvchilarning o'qish va sinfdan tashqari ishlar turlari ishlar jarayonida qo'llagan bilim va malakalardan maksimal foydalanishi, yangi materialni, ayniqsa notanish leksik material va grammatik xodisalarni o'z ichiga olgan materialni o'rganish bilan o'quvchilarni minimal darajada band qilishi zarur. Shu munosabat bilan o'quvchi kechada foydalaniladigan barcha materialni oldindan rejalashtiriladi va aniq tizimga soladi. Kechani chorak, yarim yil, yil oxirida o'tkazish mumkin. O'quvchilar o'quv jarayoni davomida katta bo'lmagan o'quv matnlarni drammalashtirish, ularni

⁶ A.A.Mirlyubov, I.V.Rahmonov, V.S.Setlin o'zlarining hammuallifligidagi "O'rta maktabda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi" M. Prosveshenie 1967. 494 bet

insenirovka qilish yuzasidan va bunday insenirovkalarni o'rganilgan she'rlar, ashullalar va shu kabilar bilan birlashtirish bo'yicha vazifalar oladilar.

Aytilganlarni ba'zi kechalar misolida tasvirlab beramiz. Chet elliklar bilan uchrashuv kechasini quyidagicha o'tkazish mumkin.

Bu kechaga material odatda shunday olinadiki, o'quvchilar programmada ko'zda tutilgan ko'pchilik mavzularga o'zlarining qobiliyatlarini tatbiq qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Agar maktab chet ellik mehmonlarni taklif qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa, unda „delegatsiya“ rolini yaxshiroq tayyorlangan o'quvchilar bajaradilar.

Chet ellik mehmonlar bilan uchrashuvga turli sinflarning o'quvchilarni taklif qilish maqsadga muvofiqdir.

Bunday kechalarning programmasi masalan shunday mavzularni o'z ichiga olishi mumkin: „birinchi tanishuv“, „Chet tili xonasida“, „Ijtimoiy foydali mehnat“, „Bizning dam olishimiz va ko'ngil ochishimiz“, „Ona yurtimizning diqqatga sazovor joylari“, „Shahar yoki tumanning diqqatga sazovor joylari“ va boshqa shu kabilar.

Chet tilidan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning qiziq va foydali turi konkurs va olimpiadalar o'tkazishdir. Ular o'qituvchilarga o'quvchilarning individual layoqatini belgilashda, ularning orasidan gumanitar fanlar sohasida eng iste'dodlilarini, o'quvchilar uchun keyinchalik ularning chet tillarini egallashda erishgan ko'nikma va malakalarni o'stiradigan maxsus ish formalari tashkil qiladi. Chet tillarda konkurs va olimpiadalar o'tkazish avval odatda o'qituvchi tomonidan ham, o'quvchi tomonidan ham katta va jiddiy tayyorgarlik olib borilishini talab etardi. Buning uchun eng avvalo konkurs yoki olimpiada o'tkazish sharoitlarini ishlab chiqish va ular bilan maktabning barcha o'quvchilarini tsnishtirish kerak. Ilg'or o'qituvchilar o'quvchilarning faolligini va ijodiy tashabbusini o'stirishga intilib ko'pincha shu shartlarni ishalb chiqishga o'quvchilarning o'zlarini keng jalb etadilar.

Boshlang'ich sinflarning o'quvchilari uchun o'tkaziladigan konkurs va olimpiadalarning xay'at a'zolari vazifasini yuqori sinf o'quvchilar ham bajarishi

mumkin. Xay'at a'zolari o'qituvchi bilan birgalikda konkurs va olimpiadalarni o'tkazish shartlarini ishlab chiqadilar. Bolalarning xay'at a'zolari ishida faol qantashishlari katta rol o'ynaydi, o'quvchilarning o'z kuchlariga ishonishlarini mustahkamlaydilar, ularning tashabbusuni, mustaqilligini rivojlantiradi.

Konkurs yoki olimpiadaning ommaviyligini ta'minlash uchun (bu tadbir) asosan ommaviy bo'lgandagina o'z ma'nosiga ega bo'ladilar, o'z vaqtida va ustalik bilan targ'ibot uyushtirish zarur. Tayyorgarlik ko'rish davrida tushuntirish ishlari uchun devoriy gazeta hamda e'lonlardan foydalanish mumkin. Maktab koridorlarida xay'at a'zolari konkurslarning boshlanishidan oldin kamida ikki, yoki bir yarim oy ilgari ularning o'tkazilish muddati va shartlari yozilgan, badiiy bezatilgan plakatlarni ilib qo'yadilar. Bundan tashqari sinflarda qo'shimcha e'lon va tushuntirish ishlari olib boriladi.

Chet tillarda o'tkaziladigan tadbir va olimpiadalar boshqa predmetlardan o'tkazilgani singari bir necha davrada o'tkaziladi.

Birinchi davra topshiriqlari ancha oddiy bo'lib, ma'lum sinfnig o'quv materiali asosida tuziladi va ko'pincha har bir sinfda o'quvchilar tomonidan alohida bajariladi.

Ikkinchi davra odatda birinchi davra g'oliblari parallel sinflarning o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladi va uni o'tkazish shartlari murakkablashadi. Navbatdagi davralar maktab, tuman, shahar va viloyat miqyosida bo'lishi mumkin. Oxirgi davra g'oliblari maqtoov yorliqlari, chet tilidagi kitoblar bilan mukofotlanadi. Maktab ma'muriyati, xalq ma'orifi organlari rahmatnomalari oladilar.

O'rta maktab o'quvchilarini yakunlovchi kechalarda konkurs va olimpiadalarning natijalari bilan tanishtirish kerak. Bunday kechalarning programmasi g'oliblarning chiqishlari asosida tuziladi. Konkurs g'oliblarining ishlarini turli ko'rgazmalarda namoyish qilish yoki, devoriy gazetada yoritish mumkin. Misol tariqasida shunday konkurslardan birining mavzusi „Og'zaki nutqni kim yaxshi egallagan“dir. Bu konkursning so'nggi davrasini o'tkazish uchun eng qulay vaqt maktab o'quvchilarining bahorgi ta'til vaqtidir. Biroq

konkursga tayyorgarligini o'quv yilining birinchi yarmi oxiridanoq boshlash kerak. Qishki ta'tilda konkursning xay'at a'zosi konkurs shartlarini ishlab chiqadi va konkurs shartlarini e'lon qiladi.

I davra

1. Xay'at a'zolari va auditoriyada to'plangan savollariga javob berish. O'tilgan nutq mavzulari yuzasidan savollar berish.
2. O'tilgan og'zaki nutq mavzulariga oid, tanish bo'lgan rasmni tasvirlab berish.

II davra

1. O'tilgan mavzu bo'yicha audiotasmaga yozib olingan notanish matnni tinglash va matn mazmuniga muvofiq, xay'at a'zosi hamda auditoriyaning bir necha savollariga javob berish.
2. O'tilgan og'zaki nutq mavzulari tematikasi bilan bog'liq bo'lgan notanish rasmni tasvirlash.

III davra

1. O'tilgan leksik va grammatik material asosida tuzilgan audiotasmadagi matnni tinglash. Matn mazmuniga bog'lab, auditoriya bilan suhbatlasha olish.
2. O'tilgan og'zaki nutq mavzulari bilan bog'liq bo'lgan rasm personajlarining dialogini tuzish, savollarning miqdori xay'at a'zolari tomonidan o'qitish bosqichlariga qarab tanlanadi.

Konkurs oldidan uning ishtirokchilari savol va javoblar, erkin, ravon suhbatlar xarajterida bo'lishi kerakligi ogohlantiriladi. Shuning uchun o'quvchi ikki, uch gap bilan javob berishga harakat qilib, o'z savollarini, suhbatni davom ettirishga yordam beradigan qilib tuzish kerak.

I-davrada savollar ikki-uch mavzuga taaluqli bo'lishi kerak. Xay'at a'zolari konkurs ishtirokchilariga navbat bilan savol beradi, yoki auditoriya bilan istalgan mavzu bo'yicha suhbatlashishni tavsiya etadi.

Konkurs ishtirokchilari I davraning ikkinchi topshirig'ini bajarayotib, o'zlari ilgari sinfdi, yoki uyda ishlab chiqqan rasmlaridan birini ta'riflab berish uchun

oladilar. Konkursda ta'riflab berish uchun tavsiya qilinadigan olti-sakkiz so'zlashuv mavzulari va rasmlar o'quvchilarga tayyorgarlik ko'rilayotgan davrada oldindan ma'lum qilib qo'yiladi.

II-III davralar uchun o'qituvchi 10-12 matnli audiolenta yozuvini tayyorlab qo'yishi lozim. Konkurs ishtirokchilari bilan birgalikda unda qatnashayotgan barcha o'quvchilarni matn yuzasidan olib boriladigan suhbatlarda ishtirok eta olishlari uchun, yozuvni birga tinglaydilar.

Xay'at a'zolari qaroriga ko'ra matnlar bir necha marotaba eshittirilishi mumkin. Matnni o'quvchi qancha marta tinglashlariga, ularning bilim darajasiga til tayyorgarligiga bog'liqdir.

II va III davra uchun matnlar konkurs shartidan ko'rinib turibdiki, bir-biridan ancha farq qiladi. II davrada o'quvchilar ilgari sinfda ishlaganlariga o'xshash matnni tinglaydilar. Uning mazmuni ilgari o'quvchilar sinfda o'rgangan so'zlashuv mavzularining biri bilan yaqindan bog'liqfir. III davrada matnlarning mazmuni o'quvchilar uchun butunlay yangi bo'lishi kerak. Ammo ularda uchraydigan leksik va grammatik konstruktsiyalar kurs ishtirokchilarida qiyinchilik tug'dirmasligi kerak, II-III davra uchun shunday rasmlar tanlab olinadiki, ilgari o'quvchilar bu rasmlar bilan ishlagan bo'lmasin. Lekin ularning mazmuni ilgari sinfda o'rganilgan so'zlashuv mavzulariga mos bo'lishi kerak.

III davrada konkurs ishtirokchilari rasm personajlari dialogini ikki kishi bo'lishib insenirovka qiladilar. Ular bu topshiriqni bajarishga tayyorlanish uchun besh-olti minut vaqt oladilar. Bu varq ichida o'quvchilar bir-birlari bilan bo'lajak dialogning mazmuni haqida kelishib oladi.

Eng yaxshi badiiy so'z ustasi, eng yaxshi tarjimon konkursdagi ham shunday tashkil qiliishi mumkin.

Har qanday konkurs yoki olimpiadaning muvofaqqiyatli o'tkazilishi faqat ularni sinchiklab tayyorlashga emas, balki ularni o'tkazilishini aniq tashkil qilinishiga bog'liqdir. Shuning uchun o'quvchilarning javobini taxlil qilish va baholash uchun ularning qayd etilishini o'ylab ko'rish juda muhimdir. Bu ishni bajarishda turli vositalardan foydalanish mumkin.

To'garaklarning ishi. Sinfдан tashqari ishlarning ommaviy formalari qanchalik qimmatli va foydali bo'lmasin, uning asosiy kamchiligi bu ishlarning har zamonda bir bo'lishi, ayrim ommaviy tadbirlarni o'tkazish muddatining nisbatan qisqa bo'lishi sababli uni ham hisobga olish zarur. Nutq ko'nikmalari va malakalarini o'stirish uchun esa doimiy ravishda mashq qilib turish, muntazam nutqiy munosabatda bo'lish kerak. Shuning uchun sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning ommaviy formalarining o'zigina nutqni o'stirish vazifalarini hal qilib bermaydi. Ishning vaqti-vaqti bilan o'tkazilib turiladigan ommaviy formalari doimiy ishlab turuvchi chet tili to'garaklari bilan to'ldirilib turilishi kerak. Chet tili programmasida to'garakarni chet tilidan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni chet tillaridan olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni tashqil etishning formasi deb bejiz aytmaydi. Yuqorida ko'rsatilib o'tilganidek, odatda o'quvchilar ko'pchilik ommaviy tadbirlarni o'tkazishga mana shu to'garaklarning o'zida tayyorlanadilar. Shuning uchun to'garaklar har bir maktabda, har bir chet tili o'qituvchisi tomonidan tashil qilinishi kerak.

To'garakka yozilish qat'iy ravishda ixtiyoriylik asosida olib boriladi, ishtirokchilar soni ko'p bo'lmasligi kerak. Bu og'zaku nutqning o'sishini qiyinlashtirgan bo'lar edi. To'garaklarda qatnashuvchilarning soni 12-15 tadan ko'p bo'lsa, og'zaki nutqni o'stirish shuncha qiyinlashadi. Ilg'or o'qituvchilarning tajribasi shundan dalolat beradiki, to'garaklarda mashg'ulotlar kamida ikki haftada bir marta 1, 1,5 akademik soat davomida o'tkaziladi. O'qituvchi to'garakning turini va uning tematikasini o'quvchilarning talabi va qiziqishlarini, shuningdek o'zining malakasi va imkoniyatlarini (ashula ayta olishi, o'yinga tushishi, rasm solishi va shu kabilarni) hisobga olib belgilaydi. To'garaklarni paralel sinflarning o'quvchilari uchun tashkil etiladi. Turli sinflarni, o'quvchilarni bir to'garakka birlashtirish o'quvchilar uchun qiziqarli va tushunarli bo'lgan til materiali tanlashni qiyinlashtiradi. Chet tili to'garaklarining mashg'ulot mazmuniga qarab bir necha turga ajratiladi. Bulardan bir qismini o'qishning barcha bosqichlardagi o'quvchilar bilan ishlash uchun tavsiya qilish mumkin. Bularga so'zlashuv to'garagi, xo'r to'garagi va boshqalar kiradi.

Yuqori sinf o'quvchilari uchun shuningdek quyidagi to'garaklarni ham tashkil qilish mumkin: drammatik to'garak, adabiy tarjima to'garagi, sinfdan tashqari o'qish to'garagi, mamlakatshunoslik to'garagi.

Sinfdan tashqari o'qish va mamlakatshunoslik to'garaklarida o'qishning o'rta va yuqori bosqichidagi o'quvchilar ishtiyoq bilan shug'ullanadilar.

O'qishning quyi bosqichida eng sevib shug'ullanadigan to'garak o'yin to'garagidir. Shuni aytib o'tish kerakki, ko'p o'qituvchilarning ish tajribasida to'garak mavzulari bir-biriga qo'shib o'tkaziladi, mashg'ulotlarida ularning elementlaridan biriga ko'proq ahamiyat beriladi. Bunda o'yin va boshqa qiziqtiradigan elementlar odatda to'garaklarning barcha mashg'ulotlarida mavjud bo'ladi.

To'garaklarning mashg'ulotini o'yin bilan tugallash, yoki mashg'ulotlarni bir ishdan ikkinchi ishni bajarishga o'tishda aqliy dam olish uchun o'tkazish ma'quldir. To'garaklarning hamma mashg'ulotlarida o'quvchilarning doimiy ravishda til muhitida bo'lishlarini o'qituvchi qat'iy kuzatib turishi kerak. Buning uchun o'qituvchining o'zi o'quvchilarga murojaat qilishi, o'quvchilar esa o'qituvchiga faqat chet tilida murojaat qilishlari lozim.

O'qituvchi o'quvchilarni to'garak mashg'ulotlarida bir-birlari bilan chet tilida so'zlashuvga xato qilishidan qo'rqqanlikka nutqning normal tezligini kuzatib borishga o'rgatish kerak. To'garaklar ishining samaradorligi ko'p jihatdan uni mohirlik bilan maqsadga muvofiq ravishda rejalashtirishga bog'liqdir. Ilg'or o'qituvchilarning tajribasi, eksperimental tekshiruv hamda maxsus tajriba ishi shuni ko'rsatadiki, mavzu va mashg'ulotlarning kalendar jadvali bilan cheklanib qolmasdan, mashg'ulotlarda tarkib topib boradigan ko'nikma va malakalarini konkret nazarda tutgan, nutq faoliyatining so'zlashuv (monologik, diallogik nutq) va eshitib tushunish kabi ayrim turlarini, shuningdek kerakli til muhitini yaratish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan qo'llanmalar nisbatini hisobga olgan holda rejalashtirish eng samarali rejalashtirishdir.

O'qituvchi tematikasini tanlab olgach, mashg'ulotlarda foydalana oladigan materiallarni, masalan mantlarni (adaptatsiya qilinganligini yoki aslini) audiodisklar, rasmlar, albomlar, kinofilmlarni taxminan belgilab oladi.

Har bir mavzu har qanday turdagi nutq faoliyatining malaka va ko'nikmalarini o'stirishga xizmat qilishi mumkin, biroq shu narsa tamomila ravshanki, ba'zi mavzular (Diqqatga sazovor joylar, Yozuvchining olimning ijodiy yo'li va hokozalar) monologik nutqni rivojlantirish imkonini beradi, boshqalari masalan „Magazinda“, „Oshxonada“ kabi mavzular esa dialogik nutqda ancha tabiiy holda bayon etiladi.

Ba'zi materiallardan masalan audiodisklardagi adabiyotdan parchalar mashq va matnlardan tinglab tushunish qobiliyatini o'stirish uchun, boshqalaridan esa gapirish ko'nikma va malakalarni o'stirish uchun ancha samarali foydalanish mumkin.

Ba'zi iqtidorli o'quvchilarga individual topshiriqlar ham berish mumkin. Nixoyat, o'qituvchi to'garak qatnashchilarining ko'nikma va malakalarini ijodiy ishlarini to'garakdan tashqarida xususan ommaviy tadbirlardan birortasida qanday tatbiq qilish mumkinligini nazarda tutadi.

Ishning individual formalari. Chet tillaridan olib boriladigan ommaviy ishlar ham, to'garak shlari ham o'quvchilar bilan individual ish qilish orqali bajariladi. Ishning individual formalari ommaviy va guruh bo'lib bajariladigan tadbirlarning har bir ishtirokchisi bilan alohida-alohida ishlashni taqozo etadi. O'quvchilarning chet tilidagi unchalik katta bo'lmagan piessani yaxshi o'ynay olishlari uchun, o'qituvchi tayyorgarlikning boshlanish davrida har bir ijrochi bilan alohida-alohida rol matnlarni o'qishi, to'g'ri talaffuz, intonatsiya qilishni mashq qilish kerak. O'qituvchi chet tilidagi adabiy montaj ishtirokchilarining har biri bilan alohida oldindan ish olib boradi va xokazo.

Bundan tashqari o'qituvchi kechada yoki darsda boshqa o'quvchilar uchun chet tilida biror chiqishni tayyorlayotgan o'quvchilar bilan individual ish olib boradi. Bu biror yozuvchining hayoti va ijodi haqida axborot, uning umuman ijodi, yoki ayrim asarlariga xarakteristika va shu kabilar bo'lishi mumkin. O'qituvchi

doklad qiluvchiga doklad yoki rejani tushintirishda foydalanishi kerak bo'lgan adabiyotlarni tanlashga yordam beradi. Shundan keyin o'zi doklad qiluvchining nutqidagi xatolarini tuzatish uchun oldindan doklad bilan tanishib chiqadi.

O'qituvchi ishining individual formalaridan chet tilini o'rganishga alohida qiziqayotgan va bu sohada qobiliyatining ko'rsatayotgan o'quvchilarning chet tili adabiyotini o'qishlariga rahbarlik qilishda ham foydalaniladi.

Xulosa.

Xulosa qilib biz ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar kuni kecha prezidentimiz I.A.karimov tomonidan xorijiy tillar o'qitilish tizimini takomillashtirish sohasidagi qaroridan ruhlangan holda ayrim maktablarda ingliz tilini chuqurlashtirib o'qitilishiga e'tibor qaratilmoqda. Jumladan bu yil shahrimizning 14-maktabda 1-sinfдан ingliz tili o'qitilishini yo'lga qo'yildi. Ko'plab maktablarda jumladan 14-32-36- maktablarda boshlang'ich sinflarda fakultativ sifatida nemis tili darslari olib borilmoqda. Ingliz tili o'qitiladigan deyarli har bir maktablarda ingliz tilidan to'garaklarning turli xil shakllari faoliyat ko'rsatmoqda, so'zlashuvga o'rgatish, drama, mamlakatshunoslik, yosh tarjimon kabi to'garaklar fikrimizning isbotidir.

Ingliz tili o'qitilishida sinfdan va maktabdan tashqari ishlar sifatida maktab, shahar, tuman va viloyat miqysida olimpiada, bilimlar sinovi va boshqa ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilmoqda. "Bilimlar sinovi"da ingliz tili bo'yicha nafaqat o'quvchilar, balkim o'qituvchilarning ham bilimlari sinovdan o'tkazilmoqda. Ingliz tili o'qituvchilarining ixtisoslik va o'qitish metodikasi bo'yicha bilimlarini boyitish maqsadida malaka oshirish kurslari va treyninglar o'tkazilmoqda.

Ilg'or o'qituvchilarning tarjibalarini ommalashtirish maqsadida oyda bir marotaba turli maktablarda metod birlashma yig'ilishlari o'tkazilmoqda. Yig'ilishlarda ochiq darslarning muhokamasi, ilg'or tajribalar, xorijiy til o'qitilishidagi ilg'or pedagogik texnologiyalar haqida fikr almashiniladi. O'qituvchilar fan to'garaklari tashkil qilishda bir-birlariga ko'maklashmoqdalar. To'garakdagi mashg'ulotlar o'quvchilarning ona tilidan olgan bilimlarini kengaytiribgina qolmay, ulardagi o'qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. I.A.Karimov “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” T.1998
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” T.1998
3. I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” T.2008
4. I.A.Karimov “Vatan va xalq mangu qoladi” T.2010
5. S.Saidaliyev “Chet tili o'qitish metodikasidan ocherklar” Namangan 2004
6. A.A.Miralyubov, I.B.Rahmonov “O'rta maktabda chet tillar o'qitishning umumiy metodikasi” T.1974
7. O'.Xoshimov, I. Yoqubov “Ingliz tili o'qitish metodikasi” T.2003
8. V.S.Setlin “O'rta maktabda chet tili o'qitish kursi” T.1975
9. T.Sattarov “Bo'lajak chet tili o'qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi” T.2003
10. J.Jalolov “Cet til o'qitish metodikasi” T.1996
11. С.А.Шатилов “Методика обучения немецкому языкам в средней школе” L.1986.
12. Z. Vahobjonova “Chet tillarini o'qitishda lingvo - didaktik o'yinlar” A. 2009
13. Sh. S. Alimov “Intensiv metodlar, interfaol metodlar noan'anaviy dars o'tish usullari, didaktik o'yinlar”

o'qish uchun adabiyot tavsiya qilishi, qiyin joylarini tushunishga yordam berishi, o'qilgan kitobning mazmuni haqida ular bilan chet tilida suhbatlashishi kerak. Shunday qilib sinfdan va maktabdan tashqari ishlar sohasidagi maqsad va

vazifalarni ommaviy to'g'arak va individual ishlarni ustalik bilan birga qo'shib olib
borgandagina muvaffaqiyatli bajarishi mumkin.⁷

⁷ J.Jalolov "Cet til o'qitish metodikasi" T.1996